

XIII. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

Doimiy aholi soni

Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2025- yil 1- oktabr holatiga 3 697,6 ming kishini tashkil etib, 2025- yil boshidan 58,3 ming kishiga ya'ni 1,6 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1 576,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,6 %), qishloq aholisi soni 2 121,0 ming kishini (57,4 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:

2025- yil yanvar-sentabr oylarida

- Aholi soni **58,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **75,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **11,6 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **17,7 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **2,5 ming nafarni** tashkil etdi

2025- yilning
yanvar-sentabr oylarida

Yil boshida
doimiy aholi soni
3 639 318 kishi
(2025- yil 1- yanvar holatiga)



75,1 ming
bola

Tug'ilganlar soni



11,6 ming
kishi

O'lganlar soni



10,0 ming
kishi

Ko'chib kelganlar
soni



15,2 ming
kishi

Ko'chib ketganlar
soni

Doimiy aholi soni
3 697 658 kishi
(2025- yilning 1- oktabr holatiga)

Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni¹⁾
(2025- yilning 1- oktabr holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
Qashqadaryo viloyati	3 697,6	1 576,6	2 121,0
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	305,1	305,1	-
Shahrisabz sh.	152,0	152,0	-
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	230,7	54,2	176,5
Dehqonobod	165,3	31,4	133,9
Qamashi	305,0	72,1	232,9
Qarshi	284,8	102,9	181,9
Koson	324,9	170,3	154,6
Kitob	291,8	107,8	184,0
Mirishkor	134,3	50,3	84,0
Muborak	96,6	76,6	20,0
Nishon	173,6	102,9	70,7
Kasbi	221,1	85,4	135,7
Ko'kdala	198,8	33,8	165,0
Chiroqchi	279,4	79,3	200,1
Shahrisabz	241,8	57,8	184,0
Yakkabog'	292,4	94,7	197,7

¹⁾ dastlabki ma'lumot

Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy aholi soni
(1- oktabr holatiga ming kishi)

	2024- y.	2025- y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	3 618,3	3 697,6	102,2
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	299,4	305,1	101,9
Shahrisabz sh.	149,3	152,0	101,8
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	225,8	230,7	102,2
Dehqonobod	161,9	165,3	102,1
Qamashi	298,1	305,0	102,3
Qarshi	277,6	284,8	102,6
Koson	317,4	324,9	102,4
Kitob	286,0	291,8	102,0
Mirishkor	131,6	134,3	102,1
Muborak	94,7	96,6	102,0
Nishon	169,6	173,6	102,4
Kasbi	216,5	221,1	102,1
Ko'kdala	192,9	198,8	103,1
Chiroqchi	272,8	279,4	102,4
Shahrisabz	237,9	241,8	101,6
Yakkabog'	286,8	292,4	102,0


Yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2024- y.	2025- y. ¹⁾	o'sish, kamayish	2024- y.	2025- y. ²⁾
Tug'ilganlar	74 787	75 116	329	27,8	27,4
O'lganlar	12 023	11 638	-385	4,5	4,2
Tabiiy o'sish	62 764	63 478	714	23,3	23,2
Nikohlar	17 909	17 715	-194	6,7	6,5
Ajralishlar	2 276	2 456	180	0,8	0,9

Tug'ilish darajasi. 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni 75 116 kishini tashkil qildi va 2024- yilning shu davriga (74 787 kishi) nisbatan 329 kishiga ko'paydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 27,4 promilleni tashkil qildi va 2024- yilning shu davriga (27,8 promille) nisbatan 0,4 promillega kamaydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-sentabr oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko'rsatkichning yuqori darajasi G'uzor tumanida 29,6 dan 30,1 promillega va Dehqonobod tumanida 29,7 dan 30,1 promillega ko'payishi kuzatilgan.

¹⁾ dastlabki ma'lumot


²⁾ dastlabki ma'lumot

Tug‘ilish. 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida 75,1 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 27,4 promilleni tashkil etdi hamda 2024- yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamayganligi (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 27,8 promille bo‘lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun


Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati **22 hafta** va undan ortiq, bolaning bo‘yi **25 sm** va undan ortiq, vazni **500 gramm** va undan ortiq bo‘lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti (2025- yilning yanvar-sentabr oylarida)



O‘lim darajasi. 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida o‘lganlar soni 11 638 kishini tashkil qildi va 2024- yilning shu davriga (12 023 kishi) nisbatan 385 kishiga yoki 96,8 foizga kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,2 promilleni tashkil qildi (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 4,5 promille).

O'lim soni va koeffitsientlari




O'lim ko'rsatkichlarining yuqori darajasi Kitob tumanda (3,5 dan 3,6 promillega), Ko'kdala tumanda (3,4 dan 3,7 promillega) ko'payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 17,7 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,5 promilleni tashkil etdi.



Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti


(2025- yilning yanvar-sentabr oylari holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 2,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti

(2025- yilning yanvar-sentabr oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2025- yilning yanvar-sentabr oylari FHDYO organlarida 17 715 ta nikohlar va 2 456 ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 6,5 ta nikoh (2024- yilning tegishli davrida 6,7 ta) va 0,9 ta ajralishlar (2024- yilning tegishli davrida 0,8 ta) to'g'ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-sentabr oylarida, birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2024- y.</i>	<i>2025- y.</i>	<i>2024- y.</i>	<i>2025- y.</i>

Qashqadaryo viloyati	17 909	17 715	2 276	2 456
-----------------------------	---------------	---------------	--------------	--------------

shaharlar:

Qarshi sh.	1 470	1 996	285	337
------------	-------	-------	-----	-----

Shahrisabz sh.	643	526	149	164
----------------	-----	-----	-----	-----

tumanlar:

G'uzor	1 220	1 219	140	123
--------	-------	-------	-----	-----

Dehqonobod	898	851	83	85
------------	-----	-----	----	----

Qamashi	1 482	1 481	184	171
---------	-------	-------	-----	-----

Qarshi	1 420	1 198	161	203
--------	-------	-------	-----	-----

Koson	1 707	1 647	143	153
-------	-------	-------	-----	-----

Kitob	1 287	1 240	205	180
-------	-------	-------	-----	-----

Mirishkor	636	619	45	70
-----------	-----	-----	----	----

Muborak	522	516	69	68
---------	-----	-----	----	----

Nishon	876	786	97	108
--------	-----	-----	----	-----

Kasbi	1 168	1 090	104	99
-------	-------	-------	-----	----

Ko'kdala	969	982	56	82
----------	-----	-----	----	----

Chiroqchi	1 284	1 246	174	202
-----------	-------	-------	-----	-----

Shahrisabz	1 009	1 042	178	210
------------	-------	-------	-----	-----

Yakkabog'	1 318	1 276	203	201
-----------	-------	-------	-----	-----

Migratsiya¹ (Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 10 041 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 15 179 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)


		2024- yilning yanvar-sentabr oylarida	2025- yilning yanvar-sentabr oylarida
	Ko'chib kelganlar	8 673	10 041
	Ko'chib ketganlar	13 749	15 179
	Migratsiya saldosı	-5 076	-5 138

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida migratsiya qoldig'i minus 5 138 kishiga (2024- yilning shu davrida minus 5 076 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Yakkabog' (minus 836), G'uzor (minus 698) va Shahrisabz (minus 657) tumanlarida kuzatilgan.


Yanvar-sentabr oylarida

Soni, ming kishi

Ko'chib kelganlar



Ko'chib ketganlar



¹ shahar va tumanlar hamda hududlararo ichki migratsiyani qo'shgan holda

² dastlabki ma'lumot




Viloyat markazidagi demografik holat

Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahrining doimiy aholisi soni 2025- yil 1- oktabr holatiga 305,1 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 4,3 ming kishiga yoki 1,4 % ga o'sgan.

Qarshi shahri aholisi tabiiy harakati

(1 000 aholiga nisbatan promille)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida 5,4 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 23,7 promilleni tashkil etdi (2024- yilning mos davrida 24,5 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida 1 996 ta nikoh va 337 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,8 promilleni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan ko'paygan. (2024- yilning mos davrida 6,6 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan 1,5 promilleni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan ko'paygan. 2024- yilning mos davrida 1,3 promille bo'lgan.

Qarshi shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-sentabr holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)

